



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

70-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

2025-yil 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2025-yil uchun belgilangan asosiy vazifalarni bajarish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-78-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

a) 2025-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilanganligi:

xizmatlar hajmini 15 foizga oshirish;

sohada 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta‘minlash;

52,2 mingta xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish;

b) 2025 yilda:

xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 67,4 trillion so‘m miqdorida kredit mablag‘lari;

xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturar joylarni lizingga berishga 4,5 trillion so‘m miqdoridagi mablag‘lar yo‘naltirilishi;

v) Yengil avtotransport vositalarida yo‘lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga kiritilmasligi hamda ular ushbu faoliyat bilan litsenziya varaqasi asosida shug‘ullanishi belgilanganligi;

g) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga soliqqa tortish uchun ko‘chmas mulk ijara to‘lovi minimal stavkalariga nisbatan tumanlar (shaharlar) va zonalarga qarab o‘rnatiladigan oshiruvchi koeffitsiyentni faoliyat yoki obyekt turlari bo‘yicha tabaqalashtirish vakolati berilganligi;

d) quyidagilar tasdiqlanganligi:

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari;

2025-yilda xizmatlar sohasida 3 million kishini daromadli mehnat bilan ta‘minlash hamda xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari;

2025-yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi";

e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Viloyatda 2025-yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha "yo‘l xaritasi" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R. Sulaymonov), “O‘zmilliybank” AJ viloyat filiali (X. Amonov), iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘. Boboqulov), kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L. Xayrullayev), tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda har oyning 20-sanasiga qadar xizmat ko‘rsatish sohasidagi loyihalar va aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlarning tizimli monitoringi natijalarini Bosh prokuraturaga kiritib borish choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R. Sulaymonov), viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G‘. Boboqulov), tuman (shahar) hokimliklari 2025-yilda viloyatda xizmatlar sohasida 50 ming kishini daromadli mehnat bilan ta‘minlash hamda

xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etishning maqsadli ko'rsatkichlari tuman (shahar)lar kesimida taqsimot qilib, ijrosini ta'minlasinlar.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2025-yil 4-martdagi
70-5-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Viloyatda 2025-yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi"

T/R	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
1.	<p>Hududlardagi drayver loyihalar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida mablag'lar ajratilishi bo'yicha zaruriy choralarni ko'rish.</p> <p>Bunda: sohil bo'yi dam olish maskanlarini ishga tushirish; istirohat bog'larini zamonaviy qiyofaga keltirib, aholini jalb qilish; tunu kun faoliyat yurituvchi savdo, turizm va gastronomik ko'chalarni tashkil qilish; yo'l bo'yi va boshqa servis obyektlarini tashkil etish.</p>	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil aprel 2025-yil davomida	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), tuman (shahar) hokimliklari
2.	Magistral va mahalliy yo'llar qurilishi loyihasidan kamida 25 foiz iqtisod qilish orqali tumanlararo yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilash.	Chora-tadbirlar rejasi	2025-yil mart	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov), avtomobil yo'llari boshqarmasi (A.Halimov), viloyat prokuraturasi, tuman

				(shahar) hokimliklari
3.	2025-yil yakuniga qadar Toshkent shahri tajribasi asosida har bir hududda nodavlat kasbiy ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish choralari ko'rish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (D.Shakarov), tuman (shahar) hokimliklari
4.	Viloyatda 5 ta davlat mulki obyektlari tadbirkorlarga ijaraga berib, yoshlarni IT va chet tiliga o'qitish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil dekabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (A.Bo'ronov), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi (U.Baxromov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat boshqarmasi (N.Atajanov), tuman (shahar) hokimliklari
5.	Rivojlangan davlatlardagi o'zbekistonliklarning startap loyihalarini akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga jalb qilish va investitsiya kiritish bo'yicha vechur jamg'armalarga tavsiyalar berish choralari ko'rish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil davomida	Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (A.Bo'ronov), tuman (shahar) hokimliklari
6.	Tashkilotlar (korxonalar), tuman (shahar) hokimliklari tomonidan o'z sohasida (hududida) ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishni yengillashtirish uchun raqamlashtirish bo'yicha alohida "KPI" ko'rsatkichlarini belgilash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha takliflar	2025-yil mart	Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat sho'basini (A.Bo'ronov), Davlat

	choralarini ko'rish.			xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali (Z.Sultonov), tegishli tashkilotlar (korxonalar), tuman (shahar) hokimliklari
7.	2025-2027-yillarga mo'ljallangan yirik multimodal logistika markazlari tarmog'ini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish choralarini ko'rish.	Chora-tadbirlar rejasi	2025-yil aprel	Transport boshqarmasi (B.Raximov), Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (R.Azimov), Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (D.Shakarov), Bojxona boshqarmasi (A.Do'styorov), tuman (shahar) hokimliklari
8.	Xorijiy turistni jalb qiladigan konsert, biznes forum va ko'rgazmalar o'tkazish dasturini ishlab chiqish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish choralarini ko'rish.	Chora-tadbirlar rejasi	2025-yil mart	Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi (D.Shakarov), Madaniyat boshqarmasi (N.Niyozov), Turizm boshqarmasi, Madaniy meros boshqarmasi, viloyat tijorat banklari, tuman (shahar) hokimliklari
9.	Turistlar uchun jozibador tarixiy obyektlarni aniqlash va	Chora-tadbirlar	2025-yil iyun	Madaniy meros

	restavratsiya qilish bo'yicha uch yillik dasturini ishlab chiqish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish choralarini ko'rish.	rejasi		boshqarmasi, Turizm boshqarmasi, Fanlar akademiyasi viloyat filiali, tuman (shahar) hokimliklari
10.	Tadbirkorlarni jalb qilgan holda qo'shni davlatlar bilan chegara oldi hududlarda ko'p tarmoqli klinika tashkil qilish choralarini ko'rish.	Chora-tadbirlar rejasi	2025-yil may	Sog'liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev), tuman (shahar) hokimliklari
11.	Mahallalarda ehtiyojdan kelib chiqib tunu kun faoliyat yuritadigan bir martalik tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xususiy tibbiy punktlar (qon bosimini o'lchash, muolajalar ko'rsatish kabi hamshira xizmatlari) tashkil etish amaliyotini yo'lga qo'yish. Mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi bilan birgalikda mahalla hududidagi mahalla va davlatga tegishli bino va inshootlarga bo'lgan ijara huquqini tashabbuskor tadbirkorlarga xususiy tibbiy punktlar faoliyatini yo'lga qo'yish uchun elektron onlayn auksion savdolariga chiqarib borish.	Amaliy chora-tadbirlar	2025-yil apreldan boshlab muntazam ravishda	Qoraqalpog'iston Sog'liqni saqlash boshqarmasi (N.Safoyev), tuman (shahar) hokimliklari Mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (G'.Aliyev)
12.	Turizmga ixtisoslashgan mahallalarda har yili "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizm yarmarkasini tashkil etish.	Amaliy chora-tadbirlar	Doimiy	Turizm boshqarmasi, tuman (shahar) hokimliklari
13.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarorida belgilangan mezonlar asosida 2025-yilda tuman (shahar)lar kesimida xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tasdiqlash choralarini ko'rish.	Chora-tadbirlar rejasi	2025-yil mart	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (G'.Boboqulov),

				tuman (shahar) hokimliklari
--	--	--	--	--------------------------------